

O‘TKIR HOSHIMOVNING “UZUN KECHALAR” HIKOYASI
ANTROPONIMLARINING FUNKSIYAVIY XUSUSIYATLARI

S.B.Xursanqulov

Osiyo xalqaro universiteti magistranti.

D.Z.Abdumuzimova,

Sharof Rashidov nomidagi SamDU Markaziy

Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada *O‘tkir Hoshimovning “Uzun kechalar”* hikoyasida qo‘llanilgan antroponimlarning lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy matnda uchraydigan shaxs nomlarining funksional-semantik xususiyatlari, antroponimlarning obraz xarakterini ochishdagi roli, ijtimoiy muhitni aks ettirish va muallif g‘oyasini ifodalashdagi ahamiyati yoritiladi. Bundan tashqari, antroponimlarning matn tarkibidagi estetik va semantik yuklamasi aniqlanib, ularning badiiy tasvir vositasi sifatidagi funksiyalari ilmiy asosda izohlanadi. Tadqiqot natijasida antroponimlarning nafaqat nominativ birlik, balki muhim lingvistik va badiiy komponent sifatida xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: antroponim, lingvopoetika, badiiy matn, funksional-semantik xususiyat, obraz, ijtimoiy muhit, badiiy tasvir, estetik yuklama.

Abstract: This article provides a systematic analysis of the linguopoetic features of anthroponyms used in O‘tkir Hoshimov’s short story “Uzun kechalar.” The study examines the functional-semantic characteristics of personal names found in the literary text, as well as their role in revealing character traits, reflecting the social environment, and expressing the author’s intent. In addition, the aesthetic and semantic load of anthroponyms within the text is identified, and their functions as a means of artistic expression are interpreted on a scientific basis. The results of the research demonstrate that anthroponyms function not only as nominative units but also as significant linguistic and artistic components.

Keywords: anthroponym, linguopoetics, literary text, functional-semantic features, character, social environment, artistic representation, aesthetic load.

Аннотация: В данной статье проводится системный анализ лингвопоэтических особенностей антропонимов, использованных в рассказе О‘ткира Хошимова «Uzun kechalar». В исследовании рассматриваются функционально-семантические характеристики личных имён в художественном тексте, их роль в раскрытии характера персонажей, отражении социальной среды и выражении авторской идеи. Кроме того, определяется эстетическая и семантическая нагрузка антропонимов в структуре текста, а также научно обосновываются их функции как средства художественной выразительности.

Результаты исследования показывают, что антропонимы выступают не только как номинативные единицы, но и как важные лингвистические и художественные компоненты.

Ключевые слова: антропоним, лингвопоэтика, художественный текст, функционально-семантические особенности, образ, социальная среда, художественное изображение, эстетическая нагрузка.

Tilshunoslikda antroponimlarni o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Badiiy matn tarkibida shaxs nomlari faqat nominativ birlik sifatida emas, balki muayyan badiiy-estetik yuklamaga ega bo'lgan lingvistik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ular asarning g'oyaviy mazmunini ochishda, qahramonlarning xarakterini yoritishda hamda muallifning badiiy niyatini ifodalashda faol ishtirok etadi. Xususan, o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri *O'tkir Hoshimov* ijodida ham nom tanlash masalasi obrazlarning ichki dunyosi, ijtimoiy mavqeyi va ruhiy kechinmalari bilan uzviy bog'liq holda aks etadi. Yozuvchining "*Uzun kechalar*" hikoyasida qo'llanilgan antroponimlar muhim lingvistik va uslubiy funksiyani bajarib, matn mazmunini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Asarda uchraydigan *Marat*, *Hilola* kabi shaxs nomlari nafaqat identifikatsiya vositasi, balki muayyan semantik va emotsional yuklamaga ega bo'lgan badiiy birlik sifatida talqin etiladi. Shu bois, mazkur tadqiqotda ushbu nomlarning lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash, ularning badiiy matndagi funksional yuklamasini ochib berish muhim ilmiy masalalardan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi hikoyadagi antroponimlarning semantik - stilistik hamda funksional xususiyatlarini tahlil qilish orqali ularning badiiy matndagi o'rni va ahamiyatini belgilashdan iborat.

Mazkur hikoyadagi *Marat* antroponimi lingvopoetik jihatdan muhim semantik va uslubiy yuklamaga ega. *Marat* ismi etimologik nuqtayi nazardan *Murod* antroponimining fonetik o'zgarishga uchragan shakli sifatida talqin etilib, "*maqsad*", "*niyat*" kabi ma'nolarni anglatadi. Ushbu nom Kavkaz va Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan bo'lib, uning semantik asosida maqsadga yo'naltirilganlik g'oyasi mujassamdir. Ushbu nom *E.Begmatovning "O'zbek ismlari ma'nosi"* lug'atida *Murod (ar.) - murodli, ya'ni orzu qilingan, qumsalgan bola [2,258]* tarzida izohlanadi. Mazkur semantik mazmun asardagi qahramon xakteri bilan muayyan darajada uyg'unlashadi. Xususan, *Marat* obrazi hayotda aniq maqsadlarga intiluvchi, ijodiy faoliyatga chuqur berilgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Biroq uning maqsadga yo'naltirilganlik xususiyati shaxsiy hayotidagi munosabatlar bilan ziddiyatga kirishib, ichki konfliktni yuzaga keltiradi. Shu jihatdan, antroponim qahramonning ichki dunyosini ochishda muhim lingvopoetik vosita vazifasini bajaradi. Qahramon familiyasi *Azizov* esa *aziz* leksemasi bilan semantik jihatdan bog'liq bo'lib, *E.Begmatovning "O'zbek ismlari ma'nosi"* lug'atida *Aziz (ar.) – qadrli, qimmatli,*

tabarruk, hurmatli yoki qudratli, noyob ma'nolarida talqin etiladi [2,24]. Biroq mazkur antroponim qahramonning real ijtimoiy mavqeyi va ichki axloqiy-psixologik holati bilan to'g'ridan-to'g'ri mos kelmaydi, balki bilvosita kontrast hosil qiladi. Ya'ni nom tarkibidagi ijobiy semantik komponent bilan qahramonning ayrim xatti-harakatlari o'rtasida ziddiyat kuzatiladi. Badiiy matnda *Marat* murakkab psixologik xarakterga ega obraz sifatida gavdalanadi. U keng tafakkurli, ijodiy fikrlashga moyil shaxs bo'lib, asosan, kasbiy faoliyatiga ustuvor ahamiyat qaratadi. Natijada, uning atrofidagi insonlarga nisbatan munosabatida muayyan beparvolik kuzatiladi. Qahramon hayotiy voqelikni ko'proq ijodiy material sifatida qabul qiladi, biroq real insoniy munosabatlarda zarur muvozanatni ta'minlay olmaydi. Natijada, uning shaxsiy hayotida turli ziddiyatlar va muammolar yuzaga keladi.

Asarda muhim o'rin tutuvchi obrazlardan yana biri *Hilola* hisoblanadi. Ushbu antroponim semantik jihatdan muayyan badiiy-estetik yuklamaga ega bo'lib, bu nom *E.Begmatovning "O'zbek ismlari ma'nosi"* lug'atida *Hilol (ar) - yangi oy, bir-ikki kunlik oy chiqqan kechada tug'ilgan qiz* sifatida izohlanadi [2,573]. Mazkur semantik asos obraz xarakterida o'z aksini topadi: *Hilola* nozik tabiatli, samimiy va hissiyotga moyil shaxs sifatida tasvirlanadi. Shu bilan birga, "*hilol*"ning to'liq shakllanmagan oy ramzi qahramonning ichki zaifligi hamda hayotiy tajribasining yetarli emasligini ifodalovchi ramziy ma'no kasb etadi. *Marat* va *Hilola* o'rtasidagi munosabatlar tizimida kasbiy va shaxsiy qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyat yaqqol namoyon bo'ladi. *Marat* uchun ijodiy faoliyat ustuvor ahamiyat kasb etsa, *Hilola* uchun insoniy yaqinlik, mehr va e'tibor muhim hisoblanadi. Ushbu tafovut ularning o'zaro munosabatlarida keskinlikni yuzaga keltirib, yakunda ajralish bilan yakunlanadi. Demak, antroponimlar badiiy matnda nafaqat nominativ birlik sifatida, balki obrazlar o'rtasidagi ichki konfliktni yorituvchi muhim lingvopoetik vosita sifatida ham namoyon bo'ladi.

Qolaversa, ushbu hikoyada epizodik obrazlar tizimi ham alohida ahamiyatga ega. Ular asar kompozitsiyasida yordamchi unsur sifatida qatnashib, ijtimoiy muhitni to'ldirish hamda asosiy qahramonlar xarakterini yanada chuqurroq ochishga xizmat qiladi. Jumladan, *Qobil Qodirovich* obrazi rasmiy muhit vakili sifatida tasvirlanadi. *Qobil* antroponimi *E.Begmatovning "O'zbek ismlari ma'nosi"* lug'atida *Qobil (ar.) - iste'dodli, qobiliyatli; kuchli, qudratli yoki yuvvosh, tarbiya ko'rgan yoxud orzu va tilaklarimiz bajo bo'lib berilgan bola* [2,543] ma'nosida izohlanadi. Otasining ismi asosida shakllangan *Qodirovich* komponenti esa *Qodir (kuchli, qudratli)* [2,544] leksemasiga borib taqalib, obrazning rasmiylik va ijtimoiy maqomini yanada kuchaytiradi. Natijada, mazkur antroponimlar orqali qahramonning ijtimoiy statusi va muhitga mansubligi lingvistik vositalar orqali ifodalanadi.

Bundan tashqari, *Zamira* obrazi ham epizodik xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy muhit va do'stlik munosabatlarini aks ettiradi. Uning ismi "*oliyjanob*", "*vijdonli*", "*pokdoman*" [2,147] kabi ijobiy semantik mazmunni ifodalaydi va bu holat obrazning

funksional vazifasiga mos keladi. Shuningdek, *Feruza* va *Baxtiyor* kabi epizodik obrazlar ham matnda bilvosita ishtirok etib, umumiy ijtimoiy-madaniy fonni boyitadi. *Baxtiyor* (ar.-ft.) antroponimi “*baxtli*”, “*shodon*”, “*qutli*” [2,49] kabi ma’nolarni, *Feruza* (o‘z.-ft.) esa “*g‘olib*”, “*shavkatli*” [2,456] qiz mazmunlarini anglatib, ijobiy semantik qatlamni yuzaga keltiradi. Bu esa asarning umumiy emotsional-ekspressiv fonini kengaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, hikoyada qo‘llanilgan antroponimlar tizimi badiiy matnning semantik - stilistik va lingvopoetik tuzilmasida muhim o‘rin egallab, obrazlar xarakterini ochish, ijtimoiy muhitni ifodalash hamda muallif g‘oyasini yetkazishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. *O‘tkir Hoshimovning “Uzun kechalar”* hikoyasida qo‘llangan antroponimlar tizimi tasodifiy tanlanmagan bo‘lib, ular badiiy matnda muhim lingvopoetik funksiyani bajaradi. Har bir ism o‘zining semantik yuklamasi orqali qahramon xarakterini ochish, ijtimoiy muhitni ifodalash hamda muallif g‘oyasini yoritishda faol ishtirok etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, antroponimlar badiiy matnda faqat nominativ birlik sifatida emas, balki muallifning estetik niyatini ifodalovchi, obrazlar tizimini shakllantiruvchi muhim lingvistik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, antroponimlarning o‘rganilishi badiiy asarni chuqurroq anglash, uning ichki strukturasi tahlil qilish hamda muallif konsepsiyasini to‘laqonli ochib berishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) A.Hojiyev. *Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati*. - Toshkent: Fan, 2002. - 192 b.
- 2) E.Begmatov. *O‘zbek ismlari ma‘nosi*. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2010. - 608 b.
- 3) N.Mahmudov. *O‘zbek tili stilistikasi*. - Toshkent: O‘qituvchi, 2013. - 256 b.
- 4) O‘.Hoshimov. *Uzun kechalar // Tanlangan asarlar*. - Toshkent: Sharq, 2006. - 320 b.
- 5) Sh.Rahmatullayev. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. - Toshkent: Universitet, 2006. - 476 b.